

**9-SINF O'QUVCHILARINI INTERFAOL USULLAR ORQALI TEST
JARAYONLARIGA TAYYORLASH**

Asamiddinova Mahliyo Fazliddinovna

Annotatsiya: ushbu maqolada interfaol usullarning matematika darslarida qo'llanilishi – bu o'quvchilarining, ayniqsa, 9-sinf o'quvchilarining test jarayonlariga mustahkam tayyorgarliklarining omili sifatida hamda bu usullar orqali ularning bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: interfaol usullar, 9-sinf, o'qituvchi, o'quvchi, test jarayonlari, tayyorgarlik, bilim, ko'nikma va malaka.

Barchamizga ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida 4 ta chorak bo'lib, har bir fan o'qituvchisi har chorakda pedagogik yuklamasiga binoan o'quvchilardan nazorat ishi olishadi. Bu jarayonda o'qituvchilardan ba'zilari test sinovlarini olishsa, ba'zilari esa amaliy ishlarni o'quvchilarga bilimlarini sinagani berishadi. O'quvchilarni test jarayoniga tayyorlash uchun o'qituvchidan juda katta bilim va malaka talab qilinadi. Har bir pedagog darsni tashkillashda interfaol usullardan foydalanishi o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi va shu bilan birga o'quvchilarni testga tayyorgarliklarini oshiradi.

Aslini olib qaragnda, interfaol metod - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sınıf jamoasi bo'lib ishslash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligi oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda.

Bu borada ancha-muncha tajriba to'plagan tadqiqotchilar pedagogik texnologiya darsining muvaffaqiyatlarini kafolotlavchi omil ekanligini ta'kidlab, pedagogik jarayonlarni ilmiy lohihalashtirish, uni amalga oshirish, loyihalashtirilgan ta'lim tarbiya jarayonini amaliyatga aniq va ketma-ket tatbiq qilish xususida o'z fikr-mulohazalarini ommaning diqqat-e'tiboriga havola etayotir.

Yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maqsad nima, uning afzaliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga misol tariqasida matematika fanidan 9-sinf o'quvchilarining testga tayyorgarliklarini quyidagicha javob berish mumkin:

1. Yangi pedagogik texnologiya eng qulay va sodda usul bilan berilgan matematik misol va masalalarni yechish;
2. Trigonometrik masalalar bo'yicha mustaqil fikrlash;
3. O'quvchilarda 9 sinf materiallari bo'yicha bilim boyligini oshirish;
4. O'quvchilarda test jarayonida misollarni bajarishda optimal usullardan foydalanish va vaqtadan yutish malakalarini shakllantirish;
5. Matematika darsining qiziqarli o'tishi;
6. Darsning samaradorligini oshishi;
7. O'quvchilarda dunyoqarashining rivojlanishi;
8. O'quvchilar tafakkurini oshirish;
9. O'quvchilarning diqqat-e'tiborini tortadi.

Bundan tashqari, o'qituvchida har bir o'quvchi bilan individual munosabat paydo bo'ladi. Bu interfaol usullar o'quvchi xotirasini kuchaytiradi, uni izlanishga chorlaydi. Ushbu metod o'quvchilarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi.

Bizning ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatimiz, sinf-dars tizimi doirasida, test jarayoniga tayyorgarlikda va ta'limni tashkillashtirish shakllarining quyidagilarida o'z ifodasini topadi:

- frontal ish barcha ta'lim oluvchilar bilan bir vaqtida ishlash;
- guruhlarda ishlash;
- statik juftliklarda ishlash;
- individual ishslash.

Interfaol usullarni amalda qo'llash test jarayonining samarali bo'lishiga va o'quvchilarning unga tayyorgarlik ko'rishida quyidagi metodlar geometriya fanida katta ahamiyatga ega:

a) Kubik metodi. Kubik metodidan darsni mustahkamlash vaqtida foydalansa yaxshi natija beradi. 1 - qadam: o'quvchilarga mavzu o'tilgandan so'ng unga biror tushuncha shakllanadi. Shakllangan tushunchani quyidagicha yozish taklif etiladi.

1. Tasvirlang.
2. Taqqoslang.
3. o'xshating.
4. Tahlil qiling.
5. Ishlating.

6. Foydali va zararli tomonlari.

Masalan mavzu: "Prizma".

Asosi to`g`ri to`rtburchak, qarama qarshi yoqlari o`zaro teng va paralell bo`lgan prizma to`g`ri prizma deyiladi.

To`g`ri parallelopiped va to`rtburchakli prizma.

Sinf xonasi, gugurt quttisi, yashik, shkaf.....

2 ta asos, 4 ta yoq, 4 ta yon qirra, 12 ta umumiy qirra, 8 ta uchi bor.

b) Sinkveyn metodi.

Sinkveyn frantsuzcha so`z bo`lib "besh" degan ma'noni bildiradi. o`quvchilarga darsni mustahkamlash bosqichida biror fizik kattalik, asbob, hodisa nomi, fizik olimni quyidagicha besh qatorli misraga solishni taklif etish lozim.

Ot (1 so`z)

Sifat (2 so`z)

Fe'l (3 so`z)

Ibora (gap bilan ta'rifi beriladi)

Simonim (1 so`z yoziladi, otga yozilgan so`z bilan ma'nosi bir xil bo`lsin).

Masalan mavzu: "Kesmaning yo`nalishi. Vektor"

Vektor;

Erkin, nol nuqta;

Yasash, yo`naltirish, qabul qilish.

Agar vektorning boshi va oxiri ustma ust tushsa bunday vektor nol vektor deyiladi.

Nur (chegaralangan)

Sinkveyn metodidan foydalanish o`quvchilarni chuqur mulohaza qilishga o`rgatadi.

c) Venn diagrammasi. Bu metod qiyosiy tahlilda juda qo'l kelib, mavzuni sharhlab, ikki muammoni bir-biriga mulohaza qilib o'tishda qulay usuldir. Bu usul ikki doira shaklidagi aylana chiziqlarning qo'shilishi holatida bo`lib doiralarning ikki tarafiga tanlangan mavzuning faqat o`ziga xos individual xususiyatlari yozilib, o`rtada ikki doiraning qo'shilishi natijasida paydo bo`lgan bo'shliqda esa tanlangan ikki mavzuga xos turli fikrlar, xususiyatlar g`oyalar ko'renishi izohlab boriladi. Bir qarashda oddiydek tuyulgan bu usul o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, xotirani kuchaytiradi. U yoki bu mavzu ustida mustaqil ishlashga undaydi. Ikki mavzuning umumiy va individual, ya'ni faqat o`ziga xos tomonlarini tez farqlaydi. Mavzu tez va uzoq vaqt esda qoladi. « Venn diagrammasi » o`quvchini hushyorlikka, sezgirlikka chorlaydi. O`quvchilar 4—5 tadan uch guruhga, jami 15 taga ajratiladi. 1-guruuh doiraning o'ng tomoni, 2-guruuh doiraning chap tomoni, 3-guruuh ikki doiraning

qo's

hilishidan paydo bo'lgan bo'shliq ustida ishlaydi. Mavzuni keng qamrovli o'zlashtirib olishga ko'maklashadi. Guruhdagi qolgan o'quvchilar esa kuzatuvchilardir, ya'ni « Venn diagrammasi » ustida ishlayotgan 3 guruhning harakatlarini kuzatadilar. Hatto baholashlari ham mumkin. Dars, mavzu, harakatlar uzoq vaqt esda saqlanib qoladi. « Venn diagrammasi » turli xil g`oya, fikrlar kurashi va hujumini, munozaralarni keltirib chi-qaradi. O'quvchilarni o'yantiradi, mustaqil fikrlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, darslarni interfaol usullarda o'tish o'quvchilarning, ayniqsa, 9-sinf o'quvchilarining testga tayyorgarlik bilim va ko'nikmalarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Ayubovna, S. M. (2023). Physical Education And Sports Training Are An Integral Part Of A Healthy Lifestyle. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 338-343.
2. Ayubovna, S. M. (2023). SPORT, ESTETIKA VA ESTETIK TARBIYA. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research, 1(3), 82-89.
3. Ayubovna, S. M. (2023). Psychological Research Of Coaching Activities In Sports. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 344-352.
4. Saidova, M., & Sayfiyev, H. (2023). CONTENT-IMPORTANCE AND PRINCIPLES OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES. Modern Science and Research, 2(9), 192-199.
5. Сайфиев, X., & Сайдова, М. (2023). БАДМИНТОНИСТЫ ФИЗИЧЕСКИЙ ПОДГОТОВКА И ЕМУ РАЗРАБОТКА МЕТОДЫ. Инновационные исследования в науке, 2(4), 45-54.
6. Sayfiyev, H. X. (2023). SPORT GIMNASTIKASINING PEDAGOGIK O'LCHOV USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 307-315.
7. Ayubovna, S. M., & Xayrullayevich, S. H. (2023). YOSH BOLLALARDА SPORT SPORT GIMNASTIKASINING PEDAGOGIK O'LCHOVLAR NAZARIYASI VA TASHKILIY-METODIK ASOSLARINI TADQIQ ETISHNING MAQSADI, VAZIFALARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(22), 108-118.
8. Xayrullayevich, S. H. (2023). Use of Acrobatic Exercises and Their Terms In The Process of Teaching Gymnastics. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 80-86.

European science international conference:
THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD

9. Xayrulloyevich, S. H. (2023). Sport gimnastika mashg'ulotlarida asosiy harakat qobiliyat (FMS), postural (muvozanat) nazorat va o'zini o'zi idrok etishga sport gimnastikasining ta'sir. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research, 1(3), 74-81.

